O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING PROGRESSIV STAVKASINI JORIY ETISH MEXANIZMI	1052
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li, Otabekov Otajon G'ayrat o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KORXONANING MODDIY BAZASI	1060
Ozodova Shahzoda Ulug'bek qizi	
FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI	1064
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASHDA YANGI YAGONA TARIF SETKASINI JORIY ETISH MASALALARI	1069
Oqiljonov Azizjon Olimjon o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ.....	1074
Хасилова Висола Шоохоровна	
HARD WORK, INDEBTEDNESS AND HOPE: A SOCIO-ECONOMIC LOOK OF MODERN LABOR	1078
Rakhmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI.....	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA.....	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI.....	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....	1142
Muydinov Erkin Djumaldinovich	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1148
Xamidov Anis Choriyevich	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....	1153
Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПОЧКИ	1210
Солиев Абдумаджид Джабборович	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIVAVIY HIMOLA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1220
G'aniyeva Nozima Alijon qizi	
ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. Djabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIYIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каямов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI	1296
Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	



YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIVAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI.....	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	
HUDUDIIY TURIZM RIVOJLANISHIDA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	1336
Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH.....	1343
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILIYATLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KORXONA SALOHİYATINI YUKSALTIRISH YO'LLARI.....	1348
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN XARAJATLAR TAHLILI: ISHLAB CHIQUARISH VA LOGISTIKA XARAJATLARINING MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIRI	1353
Zokirjonov Asadbek Otabek o'g'li, Xashimova Zuhraxon Kahramonovna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNI EKONOMETRIK MODELLAR YORDAMIDA BAHOLASH	1358
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR TA'MINOTIGA OTA-ONALAR TOMONIDAN HAQ TO'LASH VA UNDAN FOYDALANISH TARTIBINING BUXGALTERIYA HISOBI.....	1361
Ro'ziboyev Oybek Baxromovich	
KICHIK BIZNESNING HUDUDIIY ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRI.....	1367
Qulmatov Alimjan Abdulloyevich	
INDUSTRIYA 4.0 SHAROITIDA KASBLAR TARKIBI TUZILMASI VA KOMPETENSIYALAR TRANSFORMATSIYASI	1371
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA (E-ID) TIZIMINING G'AZNACHILIK OPERATSIYALARIDA QO'LLANISH ISTIQBOLLARI	1375
Raximov Shaxzod Maxsudjanovich	
IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARINING INVESTITION FAOLIYATINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH	1380
Kasimova Nozima Omilovna	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE EFFECTIVE PERFORMANCE OF AN INDUSTRIAL ENTERPRISE IN THE CONTEXT OF INDUSTRY 4.0.....	1384
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
TEACHING PROGRAMMING COLLABORATIVELY THROUGH GOOGLE COLAB AND GITHUB INTEGRATION	1388
Saidova Difuza Ergashovna	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1392
Djumayev Zayniddin Axmedovich	



O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Djumayev Zayniddin Axmedovich

Oriental universiteti dotsenti v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan institutsional, tarkibiy, investitsion va innovatsion omillar ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida respublikada so'nggi yillarda kuzatilgan yalpi ichki mahsulot (YalM) o'sish dinamikasi, uning kutilayotgan o'zgarish tendensiyalari va ushbu jarayonga ta'sir etuvchi iqtisodiy determinantlar "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan vazifalar doirasida baholanadi. Shuningdek, sanoat tarmog'ining iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tutgan o'rni, qayta ishlash sanoatining texnologik darajasi va ishlab chiqarish samaradorligi masalalari yoritildi hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

Kalit so'zlar: barqaror iqtisodiy o'sish, institutsional omillar, tarkibiy islohotlar, investitsion muhit, innovatsion rivojlanish, YalM o'sish dinamikasi, iqtisodiy determinantlar.

Abstract. This article provides a scientific analysis of institutional, structural, investment and innovation factors that ensure sustainable economic growth in Uzbekistan. During the study, the dynamics of gross domestic product (GDP) growth observed in the republic in recent years, its expected trends of change, and the economic determinants affecting this process are assessed within the framework of the tasks set in the "Uzbekistan - 2030" strategy. The role of the industrial sector in ensuring economic growth, the technological level of the processing industry and production efficiency are also highlighted, and scientific and practical recommendations are formulated to ensure sustainable economic development.

Key words: sustainable economic growth, institutional factors, structural reforms, investment climate, innovative development, GDP growth dynamics, economic determinants.

Аннотация. В статье представлен научный анализ институциональных, структурных, инвестиционных и инновационных факторов, обеспечивающих устойчивый экономический рост в Узбекистане. В ходе исследования оценивается динамика роста валового внутреннего продукта (ВВП) республики в последние годы, ожидаемые тенденции его изменения и экономические детерминанты, влияющие на этот процесс, в рамках задач, поставленных в стратегии «Узбекистан – 2030». Также освещается роль промышленного сектора в обеспечении экономического роста, технологический уровень перерабатывающей промышленности и эффективность производства, формулируются научно-практические рекомендации по обеспечению устойчивого экономического развития.

Ключевые слова: устойчивый экономический рост, институциональные факторы, структурные реформы, инвестиционный климат, инновационное развитие, динамика роста ВВП, экономические детерминанты.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining sifat jihatidan yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur strategik hujjat inson huquqlari va manfaatlarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etgan holda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va aholining turmush darajasini yuksaltirishga qaratilgan kompleks islohotlar tizimini belgilab berdi. Strategiyada beshta asosiy ustuvor yo'nalish doirasida 100 ta aniq maqsad belgilab qo'yilgan bo'lib, ular iqtisodiy faollikni kuchaytirish, barqaror o'sishni ta'minlash orqali daromadi o'rtacha darajadan yuqori davlatlar qatoriga kirish, shuningdek, xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi adolatli va samarali davlat boshqaruvida yangi tizimni shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur maqola doirasida mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanish ushbu strategiyada nazarda tutilgan vazifalar kontekstida ko'rib chiqildi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror iqtisodiy o'sish masalasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlari kompleks xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. "O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish omillari" maqolasida iqtisodiy o'sishni faqat asosiy kapitalning kengayishi hisobiga emas, balki institutsional islohotlar, bozor infratuzilmasi, iqtisodiy boshqaruv samaradorligi va tarkibiy o'zgarishlar orqali ta'minlash zarurligi alohida ta'kidlangan. Ushbu yondashuv iqtisodiyotning sifat jihatidan yangilanishi barqarorlikning poydevori ekanini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, "Pathways to Sustainable Economic Growth in Uzbekistan: Challenges and Opportunities" tadqiqotida mamlakatning uzoq muddatli o'sish salohiyati iqtisodiy diversifikatsiya, investitsiyalarni jalb qilish, davlat boshqaruvini takomillashtirish va institutsional barqarorlik bilan chambarchas bog'liqligi qayd etilgan. Mualliflar iqtisodiyotning xomashyo eksportiga qaramligi uzoq muddatli barqarorlik uchun xavfli omil ekanini asoslaydi. Bu fikr amaldagi islohotlarda yuqori qo'shimcha qiymatga ega tarmoqlar ulushini oshirish zaruratini yanada dolzarb qiladi.

"Iqtisodiy o'sish omillarini takomillashtirish va barqaror rivojlanishga erishish" nomli ilmiy ishda o'sish omillari ekstensiv va intensiv guruhlariga ajratilib, resurslar hajmini oshirishdan ko'ra, texnologik yangilanishlar, inson kapitali, raqobatbardosh infratuzilma va innovatsion boshqaruv kabi intensiv omillar ancha ustun natijalar berishi asoslab berilgan. Ushbu yondashuv iqtisodiyotning ichki tizimli modernizatsiyasi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish barqaror o'sishning asosiy sharti ekanini ko'rsatadi.

"Economic Growth and Reforms in Uzbekistan: Paths to Sustainable Development and Prosperity" maqolasi iqtisodiy islohotlar, xususiyl sektorini qo'llab-quvvatlash, soliq-byudjet tizimini liberallashtirish, eksport tarkibini kengaytirish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'nalishlarini mamlakatning barqaror o'sish strategiyalari sifatida baholaydi. Mualliflar iqtisodiy tizimning moslashuvchanligi va global o'zgarishlarga tez javob berishi uzoq muddatli farovonlik yo'lida muhim omil ekanini ta'kidlaydi.

Barqaror iqtisodiy o'sishning ekologik jihatlari ham zamonaviy ilmiy manbalarda keng yoritilmoqda. "Barqaror rivojlanish tushunchasi va uning O'zbekiston iqtisodiyotida tatbiqi" nomli tadqiqotda resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, yashil texnologiyalarni joriy etish va "yashil investitsiyalar" ulushini oshirish barqaror rivojlanish siyosatining ajralmas qismi sifatida baholanadi. Global iqlim o'zgarishi sharoitida iqtisodiy o'sishni ekologik omillardan ajratmagan holda ko'rib chiqish dolzarb bo'lib bormoqda.

Makroiqtisodiy barqarorlik masalasida esa Shokhmedovning ilmiy tahlillari alohida e'tiborga molik. Unda barqaror iqtisodiy o'sishning fiskal intizom, makroiqtisodiy muvozanat, investitsion faollik va ijtimoiy barqarorlik bilan uyg'un holda qaralishi zarurligi ko'rsatib berilgan. Bu esa iqtisodiy o'sishni faqat statistik ko'rsatkichlar emas, balki tizimli boshqaruv samaradorligi belgilashini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun institutsional islohotlar, iqtisodiy diversifikatsiya, innovatsiyalar, inson kapitalini rivojlantirish, makroiqtisodiy barqarorlik, ekologik xavfsizlik va raqamli transformatsiya kabi strategik yo'nalishlar o'zaro bog'liq kompleks tizimni tashkil etishini ko'rsatadi. Kelgusida sektorlar va hududlar kesimida chuqurroq empirik tadqiqotlar olib borilishi iqtisodiy siyosatning yanada maqsadli va samarali bo'lishiga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqot jarayonida iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil etish maqsadida tizimli va kompleks yondashuv, tarixiylik tamoyili, mantiqiy tahlil, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, statistik usullar hamda guruhlash metodlaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

XXI asrning uchinchi o'n yilligi boshida dunyo xo'jaligida mazmunan va mohiyatan ilgari kuzatilmagan transformatsiyalar ro'y bermoqda. Xalqaro xo'jalik aloqalarining murakkablashuvi, davlatlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlarning keskinlashuvi, global iqlim o'zgarishlari singari tashqi omillar turli mamlakatlardagi investitsiya va ishbilarmonlik muhitiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etadi. Yangi O'zbekistonda o'tgan davr davomida bozor xo'jaligi mexanizmlarini modernizatsiya qilish, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash, milliy xo'jalik tizimining investitsiyalarga bo'lgan ehtiyojini qondirish hamda bozor munosabatlari subyektlari faoliyatini liberallashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, uning hududiy va tarmoq tarkibini optimallashtirishga yo'naltirilgan izchil islohotlar amalga oshirildi. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilish natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi barqaror o'sish bosqichiga o'tdi.



O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2000–2003-yillarda YAIMning o'rtacha o'sish sur'ati 4 foiz atrofida, 2004–2006-yillarda 7,3 foiz, 2007–2008-yillarda esa 9,2 foizdan yuqori bo'lgan. 2009–2016-yillar davomida ushbu ko'rsatkich 8 foiz atrofida barqarorlashdi. 2019-yilda iqtisodiy o'sish 5,7 foizni tashkil etdi. Biroq 2020-yilda pandemiya ta'siri ostida iqtisodiyot jiddiy sinovdan o'tdi va iqtisodiy o'sish sur'ati 1,9 foizga pasaydi. Keyingi yillarda amalga oshirilgan kompleks islohotlar natijasida 2021-yilda YalM o'sishi 7,4 foizga, 2022-yilda 5,7 foizga, 2023-yilda 6 foizga, 2024-yilda esa 6,5 foizga teng bo'ldi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning yillar davomida o'sish dinamikasi, foizda¹

“O'zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq, 2030-yilga qadar mamlakat iqtisodiyotini ikki barobar oshirish hamda daromadi o'rtacha darajadan yuqori davlatlar safidan munosib o'rin egallash asosiy vazifalardan biri etib belgilangan. Shu maqsadda 2030-yilda YalMni 160 milliard AQSh dollariga, aholi jon boshiga daromadni esa 4000 AQSh dollariga yetkazish rejalashtirilgan. Agar mavjud o'sish sur'atlari saqlanib qolsa, “70-lik qoidasi” asosida iqtisodiyot hajmi taxminan 11,6 yil davomida ikki baravar oshadi. Shu bois 2030-yilda mo'ljallangan marraga erishish uchun YalMning yillik o'sish sur'atini 9–10 foiz darajasiga yetkazish zarur.

YalMning barqaror yuqori sur'atlarda o'sishi xomashyo eksportiga yoki tashqi bozorlar konyunkturasiga tayanish hisobiga emas, balki tarkibiy o'zgarishlarni jadallashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hamda xizmatlar sektorini faol rivojlantirish orqali ta'minlanishi lozim.

Rivojlangan mamlakatlarda tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sishning sifati uning miqdoriy ko'rsatkichlaridan kam ahamiyat kasb etmaydi. Ushbu jarayonda innovatsiya iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy nazariy yondashuvlarga ko'ra, texnologik taraqqiyot iqtisodiy rivojlanishning strategik asosi bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, ta'lim va fan sohasiga investitsiyalar kiritish iqtisodiy salohiyatni oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Shu munosabat bilan strategiyada mahalliy xomashyo zaxiralaridan samarali foydalangan holda ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Sanoat iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i bo'lib, tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslarni samarali birlashtirish imkonini beradi.

Sanoat tarmog'ining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi va mamlakatning jahon xo'jalik tizimidagi pozitsiyalarini mustahkamlaydi. Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy yetuklikka erishishida sanoat ishlab chiqarishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.

Mahalliyashtirish dasturining izchil amalga oshirilishi natijasida mamlakatimizda avtomobilsozlik, neft-gaz kimyosi, farmatsevtika, to'qimachilik, maishiy texnika va zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi yangi sanoat tarmoqlari shakllantirildi. Natijada sanoat mahsulotlari tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushi oshdi va hududlar sanoat salohiyatining rivojlanish sur'ati jadallashti.

XXI asr boshlarida jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonining jadallashuvi mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda milliy iqtisodiyotni doimiy takomillashtirib borish mexanizmlarini joriy etish muhim vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar samaradorligi bevosita sanoat ishlab chiqarishini jadallashtirish va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga bog'liq. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, sanoat siyosatini innovatsion asosda yuritish, ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, "yashil texnologiyalar"ni keng tatbiq qilish va xomashyoni chuqur qayta ishlash orqali tayyor mahsulotlar hajmini oshirish dolzarb vazifalardan biridir.

2024-yilda mamlakatimizda jami 885,8 trln so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarildi. Bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 6,8 foizga ko'pdir. Xususan, eng yuqori o'sish sur'ati qayta ishlash sanoatida 7,7 foiz darajasida qayd etildi. Qazib olish sanoatida 1,9 foizlik o'sish kuzatildi. Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida qayta ishlash tarmog'ining ulushi 85,1 foizni tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari, %²

	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Jami sanoat	105,0	100,9	108,8	105,3	106,0	6,8
Shu jumladan:						
Qazib olish sanoati	99,4	78,0	110,8	101,9	101,0	1,9
Qayta ishlash sanoati	106,6	107,9	108,3	105,4	106,7	7,7

2020-2024-yillar davomida sanoatning YalMdagi ulushida sezilarli o'zgarish kuzatilmadi. 2020-yilda sanoat ulushi 26,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 26,4 foizga teng bo'ldi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston yalpi ichki mahsulotida sanoat sektori ulushining o'zgarishi (boshqa sektorlarga qiyosan, foizda)³

	2020	2021	2022	2023	2024
Yalpi ichki mahsulot	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	24,1	23,6	22,3	21,2	19,2
Sanoat	26,0	26,3	25,7	25,3	26,4
Qurilish	8,3	8,3	7,8	7,3	7,0
Xizmatlar	41,8	44,2	41,6	46,2	47,4

Qayta ishlash sanoatining texnologik tarkibini tahlil qilish uning rivojlanish darajasiga baho berishda asosiy omil hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda ushbu sektor mehnat unumdorligini, innovatsiyalarni va xalqaro savdoning o'sishini ta'minlovchi yetakchi tarmoq sifatida e'tirof etiladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda quyi va o'rta quyi texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlari ustunlik qilmoqda (3-jadval).

3-jadval. O'zbekiston Respublikasi qayta ishlash sanoatining texnologik tarkibi, %⁴

	2020	2021	2022	2023	2024
Yuqori texnologiyali	1,6	2,0	2,7	2,1	1,4
O'rta yuqori texnologiyali	25,3	22,4	20,1	23,1	24,8
O'rta quyi texnologiyali	35,5	39,9	39,4	36,8	37,5
Quyi texnologiyali	37,5	35,7	37,7	38,0	36,3

Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, quyi sanoat tarmoqlarining jami qayta ishlash sanoatidagi ulushi 2020-yilda 37,5 foizdan 2024-yilda 36,3 foizgacha pasaygan, o'rta quyi texnologiyali tarmoqlar ulushi esa 35,5 foizdan 37,5 foizgacha o'sgan.

2 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

3 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

4 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik to'plamlari asosida tuzilgan



Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri davlat tomonidan kichik sanoat shaharchalari, tashkiliy sanoat hududlari va erkin savdo-iqtisodiy hududlarining shakllanishi hamda rivojlanishini rag'batlantirishdan iboratdir. Bu sanoat siyosatining ajralmas qismi bo'lishi bilan birga texnologik-innovatsion taraqqiyotning jadallashuviga ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Kichik sanoat shaharchalari va tashkiliy sanoat hududlari milliy sanoat tashkilotlarini ilg'or texnologiyalar bilan jihozlashda o'ziga xos texnologik inkubator vazifasini bajarishi ko'zda tutiladi. Bu faoliyat O'zbekistonning iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan mintaqalarida sanoatning tez va samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

Sanoat shaharchalarini tuman markazlari va shahar tipidagi qishloqlarda tashkil etish maqsadga muvofiq, chunki aksariyat tuman markazlari sanoat rivojlanishi, ayniqsa kichik va xususiy tadbirkorlikning kengayishi uchun zarur infratuzilmaga ega. Ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi va resurslar bilan barqaror ta'minot nuqtayi nazaridan ham ushbu yo'nalish maqbul hisoblanadi. Tashkiliy sanoat hududlari esa texnologik jarayonlarning yaqin joylashuvini talab qiladigan, o'zaro bog'langan sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun eng qulay makon bo'lib, bunday hududlarda sanoatni klaster modeli asosida tashkil etish samaradorlikni yanada oshiradi. Shu bois bunday sanoat hududlarini o'rta shaharlar hamda yirik shaharlar atrofida shakllantirish maqsadga muvofiq sanaladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilish mumkinki, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun o'rta yuqori va yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarini rivojlantirishni ta'minlaydigan jiddiy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur, chunki ushbu tarmoqlar yuqori qo'shilgan qiymat yaratish va mavjud iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Bizning fikrimizcha, yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarida ijobiy natijalarga erishish uchun quyidagilar maqsadga muvofiq:

1. Yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarining strategik rivojlanish rejasini ishlab chiqish. Yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarning ilmiy-texnik hamda tadqiqot faoliyatini rag'batlantiruvchi aniq rejalarni shakllantirish zarur.
2. Resurslarni optimal taqsimlash tizimini yaratish. Ilmiy-texnika taraqqiyotining hal qiluvchi yo'nalishlarida resurslarni jamlash orqali samaradorlikni oshirish maqsadga muvofiqdir.
3. Mahalliy ilmiy-ishlab chiqarish tuzilmalarini qo'llab-quvvatlash. Ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahalliy tuzilmalarni doimiy qo'llab-quvvatlash ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlaydi.
4. Innovatsion tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni joriy etish. Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining innovatsion ilmiy faoliyatini rag'batlantirish, yangiliklarni yaratish, rivojlantirish va tarqatish mexanizmini amaliyotga keng joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "“O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni / <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021. – 455 b.
3. Механизмы и пути формирования инновационной экономики в свете реализации Стратегии действий по приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 гг. – Т.: IFMR, 2018 – 376 с.
4. To'xliyev N., Xolmatov N., Ermamatov Sh., Haqberdiyev Q. O'zbekiston iqtisodiyoti: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / N.To'xliyev va boshq. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018. – 488 b.
5. Чепель С.В. Системный анализ и моделирование перспектив устойчивого развития национальной экономики Узбекистана: Монография. / Чепель С.В. - Ташкент: IFMR, 2014. – 316 с.
6. Robert J. Barro. Economic Growth. – Cambridge: MIT Press, 1995. – 672 p.
7. Paul M. Romer. Endogenous Technological Change. – Journal of Political Economy. – Chicago: University of Chicago Press, 1990. – 98–116 b.
8. Dani Rodrik. One Economics, Many Recipes: Globalization, Institutions, and Economic Growth. – Princeton: Princeton University Press, 2007. – 280 p.
9. Jeffrey D. Sachs. The End of Poverty: Economic Possibilities for Our Time. – New York: Penguin Books, 2005. – 416 p.
10. M. Porter. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.
11. World Bank. Uzbekistan: Toward a New Economy. Country Economic Memorandum. – Washington, D.C.: World Bank Group, 2022. – 184 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
